



**ALISHER NAVOIYNING «LAYLI VA MAJNUN» DOSTONIDAGI
QAHRAMONLARINING FOLKLORDAGI ZAMINI**

Adolat Nuralieva,

O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası

katta o‘qituvchisi tel: (94) 125 44 00.

E-mail: adolat.nuraliyeva.87@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodida yaratilgan “Layli va Majnun” dostoni va uning yaratilish tarixi xususida to‘xtalib, kitobiy shakli qiyoslanadi. Navoiy “Layli va Majnun” dostonining xalq ijodiyoti zaminida paydo bo‘lgani, uning “avom” (oddiy xalq) va roviylar og‘izdan-og‘izga o‘tkazib hikoya qilib kelganini ta’kidlaydi va o‘z dostonida Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalanadi. Biroq, uning asl maqsadi “afsona” so‘zlash emas, balki “mazmun” bayon etishdir. “Afsona” asarning “mavzun libosi” bo‘lsa, hayot, Navoiy yashagan muhit masalalari asarning mazmuni, mohiyatidir. “Layli va Majnun” dostonidagi qahramonlarining vujudga kelishi va takomili, bir tomondan, ko‘hna tarixga, ikkinchi tomondan, xalq ijodiyoti bisotiga bog‘lanadi. Qays (Majnun), Layli kabi obrazlar aslida tarixiy prototiplar asosida vujudga kelgan bo‘lsa ham, boshlab ular xalq fantaziyasi, badiiy ijodkorligi bilan yo‘g‘rilib, folklor qahramonlari sirasidan o‘rin olgan, keyin yozma adabiyot obidalari tomon yo‘l olganligi, kamolot cho‘qqisiga ko‘tarilganligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodida yaratilgan “Layli va Majnun” dostoni”, kelib chiqish tarixi, qiyoslanishi, Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni bilan qiyoslanishi, talqini, tahlili.

Annotation: This article focuses on the epic poem "Layli and Majnun" created in folk oral art and its history of creation, and compares it with the book form. Navoi emphasizes that the epic poem "Layli and Majnun" appeared in the context of folk art, that it was told orally by the "common people" and narrators, and uses legends and stories about Layli and Majnun in his epic. However, his real purpose is not to tell a "legend", but to describe the "content". If the "legend" is the "theme dress" of the work, then the issues of life, the environment in which Navoi lived are the content and essence of the work. The emergence and development of the heroes of the epic poem "Layli and Majnun" are connected, on the one hand,



with ancient history, and on the other hand, with the framework of folk art. Although characters such as Qays (Majnun) and Layli were originally based on historical prototypes, they were initially shaped by folk fantasy and artistic creativity, becoming folklore heroes, and then moving towards written literature and reaching the peak of perfection.

Keywords: The epic poem "Layli and Majnun" created in folk oral literature, its history of origin, comparison, comparison with Alisher Navoi's epic poem "Layli and Majnun", interpretation, analysis

Yozma adabiyot taraqqiyotidagi katta an'analar ko'pincha qaysi bir jihati bilan bo'lmasin folklorga bog'lanadi. Bu yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyotida bir necha asrlilik tarixga ega bo'lgan xamsachilik an'anasiga ham taalluqlidir. "Xamsa" aniq tarixiy sharoit va ehtiyojning mahsuli sifatida vujudga kelishi bilan birga, qachonlardir xalqning badiiy fantaziyasi yaratgan asotir va afsonalardan, hikoya va tamsillardan, obraz va so'z injularidan bahramand bo'lib tug'ildi, kamol topdi. Folklor xamsachilikka tuganmas ma'naviy va badiiy chashma bo'lib xizmat qildi. Nazarimizda, xamsachilik folklorsiz vujudga kelolmagani kabi, usiz umri boqiy adabiy an'ana ham bo'lolmas edi. Binobarin, xamsachilikka asos solgan Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»ini ham, Nizomiyning buyuk izdoshlari Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa shoirlarning "Xamsa" si (yoki xamsachilik an'anasidan o'rin olgan alohida dostonlari)ni ham folklorsiz to'laroq va mukammalroq tasavvur etib bo'lmaydi.

"Layli va Majnun" jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g'amgin qissalardan biridir. Bu qissani "Romeo va Juletta" bilan qiyos qilar ekan, mashhur arabshunos, akademik I. Yu. Krachkovskiy, jumladan, bunday degan edi:

"G'arb syujeti Shekspir tomonidan abadiylashtirilgan "Romeo va Juletta" qissasidan ko'ra jahonda alamliroq qissa yo'q, deb allaqachonlar aytgan edi, Sharq, albatta, Romeo va Julettani bilmagan va ular bilan faqat XIX- asrdagina tanishgan edi, ammo uning uzoq asrlar davomida yashab kelayotgan o'z g'amgin qissasi, "Layli va Majnun" qissasi bor... bu qissa o'nlab ulug' shoirlarni romantik dostonlar yaratishga ilhomlantirdi va u hozirgi kunga qadar Yaqin Sharqning turli xalqlari shoirlarining ham, dramaturglarining ham, musiqachilarining ham ijodida o'z aksini topib kelmoqda. G'arbdagi Romeo va Julettaning shuhrati bilan qiyos etganda, Sharqda Majnun va Layli yanada mashhurroqdir..." [1. 30].

“Layli va Majnun” ko‘p asrli murakkab tarixga ega. Qissaning vujudga kelishi tarixini birinchi manbalar asosida sinchkovlik bilan tekshirgan I. Yu. Krachkovskiyning fikricha, uning kurtaklari VII- asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi [2. 173]. Ayrim arab manbalarining ma‘lumotiga ko‘ra, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, u Bani Omir qabilasidan chiqqan, uning asl nomi Qays ibn Mulavvah (yoki Qays ibn Muod) bo‘lgan [1. 31]. Qays o‘z qabiladoshi Layli ismli qizni sevgan [4. 88], o‘z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she‘rlar bitgan. Bunday ma‘lumot, jumladan, ibn-Qutayba (889 yilda vafot etgan) ning «Kitob-ush- she‘r va shuaro» asarida ham keltiriladi. Lekin boshqa bir qator manbalar bu ma‘lumotlarni rad etadi. Masalan, 764 yilda vafot etgan arab olimi Avon ibn-Hakim al-Qalbiy ham, 819 yilda vafot etgan arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy ham Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziydir, she‘rlar esa o‘z yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo‘lgan umaviylar xonadoniga mansub bir yigitning she‘rlari bo‘lib, u o‘z nomini oshkor etmaslik uchun Majnun taxallusini qo‘llagan, deyishadi. Shunday qilib, Majnun tarixiy shaxsligi masalasi mu- nozarali bo‘lib qoladi. Lekin shunisi ravshanki, VII- asrning ikkinchi yarmidayoq arab poeziyasida Majnun taxallusi zikr etilgan ko‘pgina mungli she‘rlar vujudga keladi, bu she‘rlarning miqdori ko‘payib boradi, to‘plamlarga kiritiladi. Ammo, Majnun nomi zikr etilgan she‘rlarning barchasi ham yolg‘iz bir kishiniki emas. Arab olimlari al-Johiz (IX asr) va 908 yilda vafot etgan Ibn al-Mu‘tazzning aytishicha, kishilar Layli nomi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha she‘rlarni Majnun nomiga nisbat beraverganlar. XII asrda Abu Bakr al-Volibiy degan kishi Majnun nomiga nisbat berilgan she‘rlarni devon qilib tuzadi, ularga sharhlar beradi hamda, she‘rlarni Majnun haqidagi rivoyatlarning syujetiga kiritadi [7. 150].

Demak, Majnun tarixiy shaxsligi masalasi munozarali bo‘lgani kabi, Majnun nomiga nisbat berilgan she‘rlarning muallifi masalasi ham munozaralidir. Biroq shunisi aniqki, mana shu she‘rlar zaminida Majnun haqida rivoyatlar paydo bo‘la boshlagan edi. Agar VIII- asr boshlarida Majnun haqidagi ana shunday ayrim rivoyatlar paydo bo‘lgan va ular hali u qadar keng tarqalmagan bo‘lsa, IX- asrga kelib bunday rivoyatlar ko‘payib, keng tarqalib boradi, X- asrda esa Majnun nomi, Majnun she‘rlari va rivoyatlari faqat Arabistondagina emas, balki Yaqin va O‘rta Sharqning boshqa o‘lkalarida ham keng tarqaladi. Rivoyatlar turli kitoblardan o‘rin oladi. Majnun nomi shoirlarning she‘rlarida tez-tez zikr etiladi. Majnun haqida bizgacha saqlanib qolgan rivoyatlar, Ye. E. Bertels ta‘kidlaganidek, [3. 30] tarqoq epizodlardan iborat bo‘lib, izchil, mukammal syujet va kompozitsiyaga ega emas edi.

Agar Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlar turli rivoyatlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan bo'lsa, rivoyatlar yozma adabiyotda Layli va Majnun haqida yirik obidalarning paydo bo'lishiga zamin tayyorladi. Layli va Majnun haqida birinchi marta 1188- yilda ulug' Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratdi. Nizomiy qalami bilan "Layli va Majnun" qissasi g'oyaviy-badiiy yuksak va mukammal bir badiiy asar darajasiga ko'tariladi, xamsachilikning an'anaviy dostoni bo'lib qoladi. "Layli va Majnun"ning tadrijiy takomilida Navoiy dostoni yangi va ulkan voqea bo'ldi. [3. 31]

Navoiyga qadar "Layli va Majnun", bir tomondan, xalq rivoyat va qissalarida, ikkinchi tomondan, yozma adabiyotda qayta-qayta ishlanib, katta yo'l kechgan va ma'lum an'analarni vujudga keltirgan [1.31]. Navoiy kitoblardan o'rin olgan rivoyatlar bilan ham, o'z salafлари dostonlari bilan ham yaqindan tanish bo'lgan. Shu bilan birga xalq og'zida, roviylar hikoyotida aytilib yurgan afsona va rivoyatlar ham ko'p bo'lib, Navoiy ulardan xabardor bo'lgan.

Navoiy "Layli va Majnun"ning xalq ijodiyoti zaminida paydo bo'lgani, uning "avom" (oddiy xalq) va roviylar og'izdan-og'izga o'tkazib hikoya qilib kelganini ta'kidlaydi [3. 31]

Navoiy "Layli va Majnun" dostonini yaratishga kirishar ekan, ma'lum adabiy an'analardan voz kecholmasdi, albatta, uning oldida mana shu adabiy an'analardan ijodiy foydalanish va shu asosda davrining yangi va muhim talab hamda ehtiyojlariga javob berish vazifasi turar edi. Bu haqda shoirning o'zi dostonining xotimasida bunday deydi:

Men xastaki bu rahashsh chektim,
Tahriri uchun halamni chektim.
Yozmoqta bu ishqı jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun...
Gar nuktalari jahonni tutti,
G'avgolari insu jonni tutti [4. 454].
Chun forsiy erdi nukta shavqi,
Ozroq edi anda turk zavqi...
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonann hikoyat.

Kim shuhrati jahonga to'lgay,
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay... [4. 454].

Bu parchada Navoiy ikki masalaga, birinchidan “afsona” va “mazmun”ga, ya’ni asarning qobig’i va mag’zi, ichki mohiyati masalasiga, ikkinchidan, til masalasiga e’tibor qiladi.

Navoiy o‘z dostonida Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalanadi. Biroq, uning asl maqsadi “afsona” so‘zlash emas, balki “mazmun” bayon etishdir. “Afsona” asarning “mavzun libosi” bo‘lsa, hayot, Navoiy yashagan muhit masalalari asarning mazmuni, mohiyatidir. Sirtidan qaraganda, dostonidagi voqealar qachonlardir arab sahrolarida bo‘lib o‘tgandek tuyuladi. Bu adabiy an’analar zaminida vujudga kelgan va asarning romantik hikoyaviy koloritini kuchaytiruvchi shartli elementlardir. Mohiyat e’tibori bilan esa Layli va Majnun ham, ularning alamli, fojiali sarguzashtlari ham feodal-klerikal muhit bilan, Navoiy yashagan zamin va zamon bilan uzviy bog‘liqdir. Shoir Layli va Majnun fojiasi bilan yashagan muhitning dahshatli qonun-qoidalariga, urf-odatlariga qarshi isyon ko‘taradi. Shu bilan birga, bu doston, insonni, uning haq-huquqini, samimiy sevgisini himoya qilishga, kishilarning shaxsiy va oilaviy baxt-saodati uchun kurashga chaqiruvchi kuchli sado edi. Bundan tashqari, Navoiy birinchi bo‘lib o‘zbek tilida va umuman turkiy tillarda buyuk salafлари asarlari bilan basma-bas keluvchi “Layli va Majnun” dostonini, Layli va Majnunlarning mukammal epik obrazini yaratdi.

Navoiy dostoni kelib chiqishi, o‘z ildizi bilangina emas, balki syujet va kompozitsiya, uslub va usul jihatdan ham xalq ijodiyotiga yaqin turadi. Uning obrazlari ham ko‘p xalq qissalari va rivoyatlaridagi obrazlarga o‘xshab ketadi. Bu birinchi navbatda dostonning bosh qahramoni Majnun obraziga taalluqlidir. Layli Navoiy dostonida folklor asarlaridagi jasoratli xotin-qizlar kabi xiyla faollashtirilgan (uning Ibn Salomga qarshi zaharli xanjar tayyorlab qo‘yishi va xafaqoni tutib behush yotgan kuyov - Ibn Salomni qoldirib, Majnun bilan uchrashish xayolida biyobonga yo‘l olishi epizodi), Navfal esa xalq asarlaridagi ojizlarga madadkor, darmondalarga mushfiq, adolatpesha, olijanob inson va pahlavonlarga o‘xshab ketadi. Bularning barchasi Alisher Navoiyning xalq va xalq ijodiyotiga e’tiborini, folklor an’analaridan ilhomlanishi va ijodiy foydalanishini yana bir bor ta’kidlaydi [4. 98].

“Layli va Majnun” dostonidan tashqari Layli va Majnun obrazlari Navoiyning lirikasi, boshqa dostonlari hamda falsafiy-ta’limiy asarlaridan o‘rin



olgan. Ishq kuychisi bo'lgan Navoiy lirikasida tez-tez Layli va Majnunlarga murojaat etadi, ularning sevgisi va fojiasini eslatadi, Laylini go'zallik va poklikning, Majnunni oshiqlik va fidokorlikning ramzi sifatida qo'llaydi. Bir necha misol keltiramiz:

Ko'p so'z yasodi Layli Majnun so'zida xals,
Ermas nachukki husnungu ishhim afsonasi [6. 358].
Chu Layli qildi Majnun ko'nglining sarmanzilin xilvat,
Na sud ar ho'y masa hay girdida oni arab hargiz [6. 358].
Zinda dil Majnunning o'lmish ko'ngli chun Laylig'a hay,
Bas ne osig' ani haydin hovlamog'lik, ey ara [6. 358].

Birinchi baytda shoir Layli va Majnun "so'z"i (dardi, fojiasi) haqida xalqning so'zi (afsona va rivoyatlari) ko'pligi ta'kidlansa, keyingi ikki baytda Majnunning xo'rlanishi, tahqirlanishi ta'kidlanadi.

Navoiy o'zga asarlarida bu qahramonlar haqida ko'pincha bir epizoddan iborat bo'lgan kichik hikoyalar keltiradi. Jumladan, "Saddi Iskandariy"da "Majnun hikoyatikim, qish kunining uzun qorong'u tuni Layli zulfining mushkin isin yel korvonidin istishmom qilib, gom urar erdikim, baxt mashshotasi ul sarrishtai murodin ilgiga berdi» (XXXIII bob), "Majnun hikoyatikim, firoq tog'i og'irlig'idin o'zni tog'din tashlamoq tiladi va Layli nomasi ilik tutub va qosidi kamarin tutub tashlamoqqa qo'ymadi (LXVI) hikoyalari bor. Bu har ikkala hikoya ham "Eshittimki..." so'zi bilan boshlanadi, bu ham ularning xalqqa, xalq ijodiyotiga taalluqligiga bir dalildir. "Lison ut-tayr" da ham "Layli va Majnun" bilan bog'liq ikki hikoya bor [8. 231]. Ammo bu hikoyalar mistik mohiyatga ega bo'lib, Majnun ishqi - ishqi ilohiy tarzida ta'rif qilinadi. "Mahbubul-qulub"ning ikkinchi qismidagi 10-faslda berilgan hikoya o'z hayotiyiligi bilan "Lisonut-tayr" hikoyalaridan farq qiladi. Unda hikoya qiliishicha, bemor yotgan Majnun Layli yo'llagan maktubni qayta-qayta o'qiydi, shu bilan taskin va shifo topib, tuzalib turadi [7. 154].

Navoiy keltirgan hikoyalarga monand hikoyalar xiyla keng tarqalgan bo'lib, ular turli to'plam va tazkiralardan, tarix kitoblari va memuarlar hamda ilmiy-badiiy asarlardan o'rin olgan. Navoiy zamondoshlari musannifotida ham ular ko'p uchraydi. Bu Layli va Majnun hikoyatlarining keng tarqalgani, el orasida latifa bo'lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Alisher Navoiy "Xamsa"sining vujudga kelishida xalq og'zaki ijodiyoti - folklor muhim bir adabiy faktor, g'oyaviy-badiiy



manba sifatida xizmat qiladi. Alisher Navoiy xalq ijodiyotidan bevosita va bivosita foydalandi. Xalq og‘zaki ijodi Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy qimmatiga qimmat qo‘shdi, uning keng ommalashuvi va xalqqa manzur bo‘lishida muhim omil bo‘ldi.

Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida “Ishqni majoz usulida tasvirlashdan maqsad uni real hayotiy material orqali ko‘rsatishdir; tirik insonlarning shavq-u zavqi, g‘am va shodliklari, kurash va dramalari obrazlarda, voqea-hodisalar tasviri jarayonida beriladi, natijada so‘fiyona dard g‘alayoni keng o‘quvchilar tab‘iga mos keladiga sarguzasht ishqiy qissa ichida gavdalanadi.

“Layli va Majnun” dostonidagi qahramonlarining vujudga kelishi va takomili, bir tomondan, ko‘hna tarixga, ikkinchi tomondan, xalq ijodiyoti bisotiga bog‘lanadi. Qays (Majnun), Layli kabi obrazlar aslida tarixiy prototiplar asosida vujudga kelgan bo‘lsa ham, boshlab ular xalq fantaziyasi, badiiy ijodkorligi bilan yo‘g‘rilib, folklor qahramonlari sirasidan o‘rin oldi, keyin yozma adabiyot obidalari tomon yo‘l oldi, kamolot cho‘qqisiga ko‘tarildi. “Xamsa” badiiy ijodiyotning ikki turi - folklor va yozma adabiyotning uzviy aloqasi va o‘zaro ta‘sirining mislsiz tajassumidir.

Adabiyotlar

1. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейле в арабской литературе, Сб. “Алишер Навои”, изд. АН СССР, М., — Л., 1946, стр. 31.
2. Насир-и Хусрау. Сафарнама. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е. Э. Бертельса. М.-Л., 1939, стр. 173.
3. Е. Э. Бертельс. “Лейли и Меджнун”, сб., “Родоначальник узбекской литературм”, Ташкент, 1941, стр. 30-31
4. Т. Ahmedov Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni, O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Toshkent —1970.
5. Xamsa, 358-bet
6. Xamsa, 454-bet.
7. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti, T.:Fan, 1974
8. Asarlar. O‘n birinchi tom, 214-215, 230-231-betlar
9. Mahbubul-qulub, 96-97-betlar